

2019 yilning yanvar-mart oylarida Toshkent viloyatida sanoat ishlab chiqarishning rivojlanishi

Raq'amlar:

➤ Sanoat ishlab chiqarish hajmi 10,7 trln.so'm.

➤ Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi 17,8 %.

➤ Iste'mol tovarlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati 98,2 %;

➤ Iste'mol tovarlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 14,3 %.

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2019 yilning yanvar-mart oylarida Toshkent viloyati korxonalaridan 10,7 trln.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbati sanoat ishlab chiqarish indeksi 108,2 % ni tashkil etdi.

Sanoatning, tog'-kon va ochiq konlarni ishlab chiqarish -3,9 % ga kamayishi, qayta ishlash 13,5 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash -3,0 % ga suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohalarida -6,1 % ga o'sishi kuzatildi.



**Yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
sanoat ishlab chiqarish tarkibi**

**Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya
tizimi, chiqindilarni yig'ish va
utilizatsiya qilish 0,4%**



Ishlab chiqaradigan sanoat 84,0%



2019-yil yanvar-mart 100%



**Tog'-kon sanoati ochiqkonlarni
ishlash 3,8%**



**Elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va
havoni konditsiyalash 11,8%**



2019 yil yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlarini tarkibi	<i>mlrd. So'm</i>	O'sish sur'ati, % foiz
--------------------------------------	-------------------	-------------------------------

Iqtisodiy faoliyatning alohida turlari bo'yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi	10746,2	Indeksi %da 108,2
---	----------------	------------------------------

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarda ishlash		411,1	96,1
---	--	--------------	-------------

shu jumladan:

Ko'mir va lignit qazib olish		129,3	73,7
Metal rudalarini qazib olish		259,4	103,2
Tog'-kon sanoati va ochiq konlarda ishlashda xizmatlar		22,4	101,4

Qayta ishlash sanoati		9027,3	113,5
------------------------------	---	---------------	--------------

shu jumladan:

<p>Oziq-ovqat mahsulotlari, ichimliklar ishlab chiqarish</p>		<p>766,4</p>	<p>91,9</p>
<p>To'qimachilik mahsulotlari, kiyimlar, teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish</p>		<p>792,7</p>	<p>99,1</p>
<p>Yog'och va po'kak buyumlar, poxol va to'qish uchun materiallardan buyumlari, qog'oz va qog'oz mahsulotlari, mebellar ishlab chiqarish</p>		<p>131,5</p>	<p>110,0</p>
<p>Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish</p>		<p>12,9</p>	<p>130,5</p>
<p>Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish</p>		<p>12,6</p>	<p>554,9</p>
<p>Kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish</p>		<p>785,6</p>	<p>117,6</p>

<p>Asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish</p>		<p>40,6</p>	<p>85,2</p>
<p>Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish</p>		<p>547,8</p>	<p>116,9</p>
<p>Metallurgiya sanoati</p>		<p>5125,3</p>	<p>124,1</p>
<p>Avtotransport vositalari, tirkamalar va yarim pritseplar ishlab chiqarish hamda mashina va uskunalarni ta'mirlash va o'rnatish, tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish</p>		<p>812,0</p>	<p>129,1</p>
<p>Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash</p>		<p>1267,6</p>	<p>97,0</p>
<p>Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish</p>		<p>40,2</p>	<p>93,9</p>

Ishlab chiqarilgan xalq iste'moli mollari

<p>Iste'mol tovarlarini ishlab chiqarish</p>		<p>1538,6</p>	<p>98,2</p>
<p>Oziq-ovqat tovarlari</p>		<p>766,1</p>	<p>98,5</p>
<p>Nooziq-ovqat tovarlari</p>		<p>772,6</p>	<p>98,0</p>

■ 2018 yil yanvar-mart ■ 2019 yil yanvar-mart



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsuloti turlarini ishlab chiqarish (yirik korxonalar bo'yicha)

Sanoat mahsulotlari nomi	O'lchov birliqi	2019 yil yanvar mart	O'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
-----------------------------	--------------------	----------------------------	---

Qayta ishlash sanoati

Tarkibida ikkita ta'minlovchi element– azot va fosfor bo'lgan mineral yoki kimyoviy o'g'itlar	<i>ming tonna</i>	75,6	181,4
Aroq	<i>mingl. 100% spirt</i>	3833,9	68,5
Uzum vinosi yoki uzum turpini distillash natijasida olingan spirt nastoykalari, konyak spirtidan tashqari	<i>ming l. 100% spirt</i>	12	82,8
Uzum vinosi	<i>ming l.</i>	279,3	70,7
Pivo (pivo ishlab chiqarish chiqindilardan tashqari)	<i>ming l.</i>	17671,2	103,8
Yumshoq bug'doy va spelta uni	<i>ming tn.</i>	18,1	63,5
Birinchi navli undan tayyorlangan bug'doy noni(buxanka), og'irligi 600 g	<i>tn.</i>	223,1	36,6
Tozalangan paxta, soya yog'i va uning fraksiyalari (kimyoviy modifikatsiya qilinganlaridan tashqari)	<i>tn</i>	2572,4	150,7
Paxta tolasi	<i>ming tn.</i>	15,5	72,9

Paxta chigiti	<i>ming tn.</i>	25,6	73,6
Paxta tiviti (lint)	<i>tn.</i>	1247	66,2

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Issiqlik elektr markazlari (IEM) ishlab chiqargan elektr energiyasi	<i>mln.kVt/s</i>	68,4	94,2
Bug' va issiq suv (issiqlik energiyasi)	<i>ming Gkal.</i>	916,1	94,7


Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi.

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Olmaliq shahar (viloyati sanoat ishlab chiqarish hajmning 38,7 % ulushini), Bekobod (13,8 %), Chirchiq shahar (7,7 %) Zangiota tumani (6,3 %), Angren shahar, (6.3 %) Qibray tumani (4,7 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.



2019 yilning yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha davlat ulushi yuqori bo'lgan korxonalar va maxalliy ahamiyatga ega korxonalar sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, %da


Hududlar kesimida Davlat ulushi yuqori bo'lgan korxonalar sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Olmaliq shahrida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 98.7 %), Bekobod (98,1 %), Nurafshon (96,5 %) va Angren (83,2 %).



Shu bilan birga, eng kichkina ulush Yangiyo'l (2,7 %), Toshkent (3,7 %), Yuqorichirchiq (6,8 %) va Chinoz (25,9 %) tumanlarida kuzatildi.


2019 yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha aholi jon boshiga sanoat ishlab chiqarish va istemol mollarining o'sish sur'atlari (o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan, foizda)

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning tabaqalanishi tahlili Olmaliq shahrida (32166,9 ming so'm), Bekobod shahrida (15765,7 ming so'm), Ohangaron shahrida (5936,7 ming so'm) va Nurafshon (7636,5 ming so'm) shaharlarida o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.




Aholi jon boshiga xalq iste'mol tovarlari ishlab chiqarilishi viloyat darajasi 530,0 ming so'm bo'lgani holda Ohangaron shahrida 910,1 ming so'mni, Yangiyo'l shahrida 647,5 ming so'mni, Chirchiq shahrida 770,2 ming so'mni, Zangiota tumanida 1712,3 ming so'mni tashkil etdi.

2019 yilning yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha yirik korxonalar va kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, %



Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Oqqo'rg'on tumani (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100 %), Yuqorichirchiq (85,8 %), Parkent (83,5 %) va Toshkent tumani (67,8 %). Shu bilan birga, eng kichkina ulush Olmaliq shahri (1,2 %), Bekobod shahri (1,8 %), Nurafshon shahri (3,5 %), Angren (11,9 %) shaharlarida kuzatildi.


Toshkent viloyati bo'yicha 2019 yil yanvar-mart oylarida umumiy sanoat korxonalarini soni, birlikda



Toshkent viloyati bo'yicha jami ro'xatan o'tgan sanoat korxonalar soni 7433 ta bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan (22,2 %)ga oshgan, faoliyat ko'rsatyotgan sanoat korxonalar soni 6328 ta o'tgan yilning shu davriga nisbatan (17,6 %)ga oshgan, faoliyatini vaqtincha to'xtatgan sanoat korxonalar soni 1105 ta o'tgan yilning shu davriga nisbatan (56,9 %)ga oshgan, yangi tashkil etilgan sanoat korxonalar soni 621 ta o'tgan yilning shu davriga nisbatan (84,8 %)ga oshgan, faoliyati to'xtatilgan sanoat korxonalar soni 43 o'tgan yilning shu davriga nisbatan (17,3 %)ga tushgan.

Toshkent viloyati hududlar bo'yicha
2019 yil yanvar-mart oylarida umumiy sanoat
korxonalari soni

Hududlar bo'yicha ro'xatdan o'tgan eng ko'p sanoat korxonalari Zangiota (1120 ta bundan 990 ta faoliyat korsatadi), Qibray (728 ta bundan 591 ta faoliyat korsatadi), Toshkent (623 ta bundan 517 ta faoliyat korsatadi) tumanlariga to'g'ri keladi.



Eng kam sanoat korxonalari Oqqo'rg'on (142 ta bundan 118 ta faoliyat korsatadi), Bekobod (144 ta bundan 121 ta faoliyat korsatadi) tumanlariga to'g'ri keladi.

**Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar
ishlab chiqarishni mahalliyashtirish
Dasturining amalga oshirilishi**

Viloyatida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining rivojlanishiga tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi, mazkur dastur doirasida kiritilgan 100 ta loyiha bo'yicha 170,1 mlrd.so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarilgan bo'lib, 2,2 mln.AQSH dollari miqdorida mahalliyashtirilgan mahsulotlar eksport qilindi va 72 ta yangi ish o'rinlari yaratildi.



Toshkent viloyatida umumiy mahalliyashtirish dasturida korxonalar soni 27 ta, loyihalar soni 100 ta. Mahalliyashtirilgan mahsulotlar eksport hajmi o'sish surati 275,0 % ga kuzatildi.

Toshkent viloyati statistika
boshqarmasi sanoat statistikasi
bo'limi
Nashr uchun ma'sul: R.Avliyakulova
(71)230 86 66